

**AYOL ISLOM UCHUN FAXRDIR.****Xoqiqurbanova Shahrizoda Shuxrat qizi***O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi**Dinshunoslik yo'nalishi(rus guruh)1-kurs talabasi.*

Annostatsiya: *Islom shakllanganidan so'ng, Oksford lug'atiga ko'ra ,ayol shaxsiyatini to'laqonli tan olinishi,Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqga ega ekanligi, Islomning mohiyatini bayon etib, qizlarning ulug' maqom sohibalari ekanligini ta'kidlash,Ayollar borasida Allohdan qo'rqinglar. Chunki sizlar Allohning omonati ilo ularni qo'lga kiritdingiz va Allohning kalimasi bilan ularning farjlarini o'zlariningizga halol qilib oldingiz" (Buxoriy rivoyati).*

Kalit so'zlar,*Din, ayol, huquq, ta'lim, tarix, hadis, rivojlanish,bosh qomusimiz, ayolning islomdagi o'rni.*

Ayol borki, olam munavvar! Ayolning islomdagi o'rni haqida qancha gapirsak ham shuncha oz. Barchamiz uchun aziz va mo'tabar bo'lgan ayol zoti haqida so'z yuritganda, birinchi bolib xammamizni koz ongimizda onamiz gavdalanadi. Ular siz bilan bizni dunyoga keltirib, ko'z qorachig'idek asrab avaylab voyaga yetkazibgina qolmasdan hamma vaqt quyosh yanglig` hayotimizga nur ato etadilar, tunimizni yorug`, yo'llarimizni oydin qiladilar. "Jannat onalar oyog'i ostida" Ha! islom ayollarni shunday ulug'laydi. Bir rivoyatda aytilganidek kunlarning birida Muoviya Ibn Johima As-Sulamiy raziyallohu anhu payg'ambar alayhissalom huzuriga kelib: "Alloh taolo yo'lida jihod qilmoqchiman", – deb ruxsat so'raydi. Payg'ambarimiz alayhissalom uning onasi tirikligini bilib, onasiga xizmat qilishni buyuradilar. Yana ruxsat so'rayvergach, U zot: "Baraka topgur, validangizning oyog'iga mahkam yopishing, o'sha yerda jannat bor!" – deydilar (Imom Ibn Moja rivoyatlari), va shu bilan birga. Birinchi bo'lib Muhammad alayhissalomga iymon keltirgan shaxs – erkak emas, ayol bo'lgan. U – Hadicha onamiz.

Birinchi bo'lib islom uchun mol-mulkini hech ikkilanmasdan fido qilgan shaxs – erkak emas, ayol bo'lgan. U – Xadicha onamiz.

Birinchi bo'lib Ka'batullohning vujudga kelishi va Makka shahrining gullab-yashnashiga sababchi bo'lgan, yer yuzidagi eng pok suv – Zamzam suvini ichishga erishgan shaxs – erkak emas, ayol bo'lgan. U – Hojar onamiz. Ayol islom uchun faxrdir! Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra Muhammad payg'ambarning kelishi bilan ayollarning ahvoli yaxshilanganligini tasvirlanadi, chunki islom tufayli ayollar huquqlarga ega bo'lishdi va bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bu huquqlar XX asrda ba'zi davlatlarda evropalik ayollarning huquqlaridan ham kengroq edi. Shuningdek, islom shakllanganidan so'ng, Oksford lug'atiga ko'ra, ayol shaxsiyati to'laqonli tan olingan.Shu jumladan tadqiqotchi Uilyam Montgomer Muhammad payg'ambar musulmon ayollarning imtiyozlari va huquqlarini nafaqat nikoh va oilaviy hayotda,





balki iqtisodiy va ta'lif masalalarida ham, ularning huquqlari manfaatlari yo'lida ham yaxshilagan deydi. Ushbu fikrni tadqiqotchi Jon Esposito ham qo'llab-quvvatlaydi va Muhammad payg'ambar ayollarga jamiyatdagi mavqeini oshirishga yordam beradigan huquqlar berilganligini ta'kidlaydi.

Qolaversa, islomda ayollar qiz sifatida ulug'lanadi. Nabiy alayhissalom islomning mohiyatini bayon etib, qizlarning ulug' maqom sohibalari ekanini ta'kidlaganlar. Ularning huquqlarini bayon qilib, zimmalaridagi vojiblarni ko'rsatib berish ila johiliyat davrida urfga aylanib, tarqalib ketgan qabihlik – qizlarni tiriklayin ko'mish muammosini bartaraf qildilar. "Qaysi birlariga qiz (ko'rgani haqida) xushxabar berilsa, g'azabi kelib, yuzlari qorayib ketadi. U (qiz)ni kamsitgan holda, olib qolish yoki (tiriklay) tuproqqa qorish (to'g'risida o'y surib), o'ziga xushxabar berilgan narsaning «yomon»ligidan (oriyat qilib) odamlardan yashirinib oladi. Ogoh bo'lingizki, ularning bu hukmlari juda yomondir ("Nahl" surasi, 58-59 oyatlar).

Ibn Rushdning so'zlariga ko'ra, XII asrda musulmon ayollar har tomonlama erkaklar bilan teng bo'lishgan. Ayollar turli ibodat va yaxshiliklar uchun savob olishda ham erkaklar bilan barobardirlar. Hozirgi vaqtda ham davlatimizda shunday siyosat olib borilmoqda, bunga misol tariqasida konstitutsiyadagi 46 moddani keltirishimiz mumkin: Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Ibn Asakir XII asrda ayollarning ta'lif olishlari uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lganligi haqida guvohlik berdi: Ular ta'lif olish va hatto ilmiy darajaga erishish, olim va o'qituvchi bo'lish huquqiga ega edilar. Xadicha onamiz o'z tijorat ishlarini boshqarganlar va Oisha onamiz taniqli hadisshunos olim bo'lganlar Rasulullohning ayollaridan o'rnak olib, boshqa ayollar ham ta'lif olishga va mustaqil iqtisodiy faolikga intildilar. Hozirda ham mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish, huquq va manfaatlarini himoyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ularning yurtimiz siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirokini ta'minlash, ma'naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish davlat siyosatining muhim yo'naliшlaridan etib belgilandi. Shuningdek, bizning bosh qomusimizning 41-moddasida ham : Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lif olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir deb takidlab o'tilgan. Shu jumladan ayollar haqida bir nechta hadislarni eslab o'tsak.

Ayollar borasida Allohdan qo'rqinglar, chunki sizlar Allohnинг omonati ila ularni qo'lga kiritdingiz va Allohning kalimasi bilan ularning farjlarini o'zlarining halol qilib oldingiz" (Buxoriy rivoyati).

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam hadislarining birida: «Mo'minlarning eng iymoni mukammali – go'zal xulqlisidir. Sizlarning eng yaxshingiz – ahli ayoliga yaxshi munosabatda bo'ladiganingizdir», deganlar. Erkak kishiga ayoliga marhamat ko'rsatib, unga hadyalar berish, yaxshi muomalada bo'lish, ayrim nojo'ya harakatlariga sabr qilish, tinch-totuv yashash kabi haqlarini ado etishi buyurilgan. Bu haqda Alloh taolo aytadi: «Ular bilan xushmuomala bo'lib, tinch-totuv yashanglar» («Niso» surasi, 19-oyat). Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytidilar: «Agar ayol besh vaqt namozini o'qisa, (Amazon) ro'zasini tutsa,





farjini – iffatini (haromdan) saqlasa va eriga itoat qilsa, jannatning istagan eshididan kiradi» (Ibn Hibbon rivoyati). Ushbu hadisda ayollarga o'z solih amallari orqasidan jannatga kirish yo'llari bayon qilingan.

Rasululohga savol berishdi -Yo Rasulalloh, bizning birimizda xotinining nima haqi bor?» – dedim. «Qachon taomlansang, uni ham taomlantirasan. Qachon kiyim kiysang, uni ham kiyintirasan. Yuziga urmaysan. Qattiq so'kmaysan va uydan boshqa joyda (o'rningni boshqa) hijron qilmaysan», – dedilar» (Abu Dovud rivoyati). Abdulloh Ibn Amr roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: «Kishi o'z qaramog'idagilarini nafaqasiz tashlab qo'yishi uning (qattiq) gunohkorligiga kifoya qiladi», – deb marhamat qilganlar. (Imom Ahmad rivoyati). Qiz bola tug'ilganida g'azablanish johiliyat davrining, Alloh taolo insonlarni islom ne'mati bilan musharraf qilgunicha bo'lgan pallaning eng yomon odatlaridan bo'lgan. Afsuski, johilona bu odat ko'p yurt va jamiyatlarda hamon saqlanib qolmoqda bu hammasi islomni yaxshi bilmaslikdan kelib chiqadi. Alloh taoloning ota-onaga bergen eng ulug' ne'mati farzand ekan, xususan, qiz farzandni go'zal axloq-odobli qilib voyaga yetkazish ota-onaning jannatiy bo'lishiga sabab bo'ladi. Oisha roziyallohu anho onamiz aytadi: "Bir ayol o'zining ikki qizini yetaklab kelib, ular uchun bir narsa so'radi. Menda bir dona xurmodan boshqa narsa yo'q edi. So'ng o'sha xurmoni ayolga uzatdim. Ayol xurmoni qizlariga bo'lib berdi, o'zi esa yemadi. Keyin turib chiqib ketdi. Shundan so'ng Rasululloh sollallohu alayhi vasallam kelib qoldilar. Men u zotga bo'lgan voqeani aytib berim. U zot: "Kim bu qizlar uchun biror narsadan tashvishlanib qayg'ursa, (shu ishi) jahannamdan to'siq bo'ladi" – dedilar" (Imom Termiziy rivoyati). "Kim ikki-uch qiz yoki singilni (g'amxo'rlik qilib) tarbiyalasa va ular undan ajralsalar (ya'ni, turmushga chiqib ketsalar) yoki o'sha kishining o'zi vafot etsa, men va u jannatda mana shunday bo'lamiz (deb, o'rta va ko'rsatgich barmoqlariga ishora qildilar)" (Imom Ibn Moja rivoyatlari). Zero, ayollarga vatani va diniga kerakli xizmatni ado etish uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, islom ayollarning qadr-qimmatini o'z o'rninga qo'yib, huquqlarini himoya qiladi! Qur'oni karimning 35 ta sura va 100 dan ortiq oyatida ayol so'zining ishlatalishi va suralardan biri aynan "Niso" yani "Ayollar" deb nomlanishi va unda ayolning mavqeい, uning hayotdagi o'rni, haq-huquqlari batafsil bayon etilishi ayollarga bo'lgan e'tiborning yorqin misolidir.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Qur'oni karim.
2. Islom.uz rasmiy sayti.
3. Hadislar :Al jome' as sahih kitobidan.
4. •muslimaat.uz rasmiy sayti.

